

Xalil Sulton



## Xalil Sulton

(1384–1411)

(1405-1409)

**Temuriylardan** bo'lgan Movarounnahr hukmdori. **Amir Temuming** nabirasi. **Mironshohning** o'g'li. **Saroy Mulkxonim** (Bibixonim) tarbiya qilgan. 15 yoshli Xalil Sulton Sohibqironning Hindistonga qilgan yurishida (1399-1400) qatnashib jasorat ko'rsatgan. Quyi tabaqadan chiqqan **Shodimulkka** uylanishi bilan Amir Temurning g'azabiga uchragan, so'ng kechirilgan. Sohibqironning Xitoyga qilgan yurishida Xalil Sulton qo'shinning o'ng qanoti boshlig'i etib tayinlangan. Amir Temurning vasiyatiga muvofiq **Pirmuhammadni** taxtga o'tqizish tarafdorlari kuchli bo'lsa-da, biroq 1405 yilning 18-martida Samarqandni egallab, o'zini Movarounnahrning oliy hukmdori deb e'lon qilgan. U garchi bobosidan qolgan xazinalar vositasida Sohibqironning nufuzi a'yon va kibarlaridan ma'lum qismini o'z tarafiga og'dirib Movarounnahr taxtini egallab olgan bo'lsa-da, ammo ko'p vaqt o'tmay u Amir Temurning sadoqatli amirlari, viloyat noiblari va shahzodalarning kuchli noroziligi va isyoniga duch keladi. Birinchi bo'lib, Turkiston hamda Farg'onaning hokimi amir **Xudaydod** bilan **Shayx Nuriddin** Xalil Sultonga qarshi isyon ko'taradilar. Hatto uning o'z ukasi **Mirzo Sulton Husayn** Amudaryoning chap sohili viloyatlarida o'z hokimiyatini o'rnatmoq niyatida akasiga qarshi bosh ko'taradi. O'z navbatida Amir Temur taxtining asosiy valiahdi Pirmuhammad Amudaryodan kechib o'tib, Xalil Sultonga qarshi Nasafga tomon askar tortadi. **Amir Xudaydod** O'ratepa va Shohruhiya shaharlarini osongina qo'lga kiritib, Samarqand tomonga askar tortadi. Sheroz yaqinida Zarafshon daryosi bo'yida sodir bo'lgan jangda Xalil Sulton qo'shini mag'lubiyatga uchraydi, o'zi esa asirga olinadi.

Xalil Sulton davlat xazinasini behuda sarflab, hokimiyatni boshqarishda xotining so'zlariga amal qilgan. Saroydagi katta mansablarga tasodifiy kishilar tayinlangan. Bu boshqa

temuriylarning qattiq noroziligiga uchragan. Xuroson hukmdori Shohruh katta qo'shin bilan Movarounnahrda yurish qilib, Samarqandni egallagan. Shohruh bilan tuzilgan shartnoma (1409) natijasida Movarounnahrdan voz kechgan. Xalil Sultonga Ray berilgan. Umrining oxirigacha shu yerda yashagan. Xalil Sulton vafot etgach, **Shodimulk** ham o'zini o'ldirgan.

2023-10-29 23:48:43